



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Omonliqova Muborak Abidovna ADABIYOT DARSLARIDA MUOMMOLI TA'LIM USULIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	7
2. Rahmonova Shahnoza ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI.....	9
3. Rajabova Dilobar Ro'ziqulovna ASQAD MUXTOR IJODIGA NAZAR	10
4. Boboyarova gavhar berdiyevna ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR RUBOIYLARINING BARHAYOTLIGI VA AHAMIYATI	11
5. Sobirova Dilnoza Rasulovna BOBUR MILLIY XARAKTER SIFATIDA.....	13
6. Жабборов Худайберан Ахмедович, Собирова Гулнора Йўлдашовна НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ҲОДИСАЛАРИ ТАЛҚИНИ	15
7. Omonullayeva Sayyoraxon Ahmadjonovna ULUG'BEK HAMDAMNING "SABO VA SAMANDAR" ASARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLAR	16



АДАБИЁТ

ADABIYOT DARSLARIDA MUOMMOLI TA'LIM USULIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

*Omonliqova Muborak Abidovna
Toshkent shahri Uchtepa tumani
296-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998- 94 6448971*

Annotatsiya: Ta'lim tizimiga STEAM, PBL kabi ta'limning zamonaviy yondoshuvlari kirib keldi. Ta'limni rivojlantirish orqali kelajak farovonligiga erishish maqsadida, yosh avlodni o'qitishga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu maqolada shu usullardan biri PBL asosida adabiyot darslarini tashkil qilish xususida fikrlashmoqchiman.

Kalit so'zlar: muommoli ta'lim, PBL, yechim, bilim, nazariy qoidalar, she'riy san'atlar.

Ta'lim olish jarayonida adabiyot fanini san'at darajasida o'rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Badiiy asar tahlili juda katta mahorat va bilim talab etadi. Shu o'rinda biz she'riy asarlar tahlili xususida so'z yuritmoqchimiz. Maktab darsliklarida she'riyat qoidalari bilan birgalikda she'riy san'atlar ham o'rganiladi. Buning natijasida o'quvchi so'z sana'tining mohiyatini anglaydi, suratni emas siyratni ko'ra oladi, asarning salmog'ini his qiladi va g'oyaviy mazmunni tushuna oladi. Shu tufayli darslarning qiziqarli va jonli o'tishini nazarga olib quyidagi ta'lim usulidan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman. Ya'ni darsda zamonaviy yondoshuv PBL asosida ham muommoli ta'lim usulidan foydalanish mumkin. P-problem-muommo, B-based-asoslangan, L-learning-o'rganish. Demak, muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish.

O'quvchilarga she'riy san'atlar qoidasi o'rgatiladi: Tazod, tashxis, talmih, intoq, husni ta'lil, tardu aks, tajohuli orif, tamsil va hakoza. Masalan,

Tazod-qarshilantirish ma'nosini bildiradi, ya'ni she'rda qarama-qarshi ma'noli so'zlarni eltirish orqali ta'sirchan badiiy timsollar yaratiladi. Masalan:

Tashxis-jonlantirish: hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir. Masalan, Lutfiyning

Yuzidin lola rang eltib uyolib shahrga kirmas,

Kishikim bo'ynidin bog'lab keturmoguncha sahrocin

Baytda lolaga insoniy xususiyatlarni ko'chirish holatini ko'raamiz.

Talmih- nazar solmoq ma'nosini bildiradi, she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san'atidir.

Senga bersun ilohi Nuh umrin,

Manga ham Furqatingda sabri Ayub.

Atoyining bu baytida Nuh va Ayub payg'ambarlarga ishora qilingan. O'quvchilar uchun ushbu ishora qilingan payg'amparlarimiz, qahramonlar, farishtalar, voqealar, mashhur asarlar haqidagi ma'lumotlar ham g'oyatda qiziqarlidir.

Intoq-so'zlatish, gapirtirish (nutqlantirish) ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatish nazarda tutilgan. Navoiyning "Lison ut-tayr"dostonida to'vusning so'zi.

Men qushman qasru gulshan ziynati, Naqshu rangim ahli olam hayrati.

Tardu aks-teskari qilib takrorlash. Birinchi misrada kelgan so'z yoki so'birikmalari keyingi misrada o'rnini almashtirib qaytarish. Masalan, Bobur bayti:

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib **balo qaro** soching,



Shikasta ko'ngluma ermish **qaro balo** soching.

O'quvchilarga muommoli masala yuklanadi. Buni mumtoz asarlarimizni o'rganish jarayonida amalga oshirsak maqsadga muvofiq. Masalan, adabiyot darsida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy Atoyi kabi shoirlar she'rlarini badiiy tahlil qilish jarayonida qo'llashimiz mumkin.

G'azallardagi badiiy tasvirlarga e'tibor bering,

Kim ko'p she'riy san'at turini aniqlay oladi?

Bu muammo guruhga yoki yakka o'quvchiga yuklanishi mumkin, jarayon davomida o'quvchi olgan nazariy bilimini amalda qo'llashga harakat qiladi.

Birinchidan berilgan she'rni qayta-qayta o'qiydi, natijada mazmunni anglaydi!

Ikkinchidan o'quvchi diqqatini jamlaydi va bir muommoning ustida bosh qotiradi, natijada yechim topa oladi, bundan o'ziga ishonch tuyg'usi ortadi.

Uchinchidan, she'riyat qoidalarini nazariy ma'lumotlarni mustahkam o'rganib oladi, natijada shakl va mazmun mohiyatini farqlay oladi. Sababi she'riy san'atlar yo so'z shakli bilan yoki mazmuni bilan bog'liq.

To'rtinchidan, ijodkorlikka ishtiyoq uyg'onadi, ya'ni qiziqish natijasida o'zi ham qayta shunaqa bayt yoki she'r yozishi mumkin.

Beshinchidan, Ma'lum muommoli vaziyatlar, aslida murakkab emasligini, vaziyat yechimini topa olishni o'rganadilar.

Darslarda muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish o'qituvchini maqsad sari oson olib boradi, o'quvchida mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quvchiga tayyor tahlillarni bersak, san'atlarini ham aytib birma-bir tahlil qilib bera olamiz biz ustozlar, lekin o'quvchining ongida bu vaqtincha saqlanadi. O'zi qachonki, shu san'at turlarini topib ololsagina, bu hech qachon esidan chiqmaydigan qat'iy bilim bo'ladi.

Xulosa shuki, mohir pedagoglar darsni san'at darajasida o'tadilar. Muommoli ta'lim usulidan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T-1998

2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. – 151 b



ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI

*Rahmonova Shahnoza
Buxoro viloyati Olot tumani
28-son maktab ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan adib Abdulla Qodiriyning hayoti va ijod yo'li keltirilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, nomus, insof, istedod, haqqo'ylik, xalq turmushini yaxshilash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'urur,

Abdulla Qodiriy 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahridagi o'rtahol oilalardan birida dunyoga kelgan. Nomus, insof va haqqo'ylik Abdulla Qodiriy hayotining asosiy tamoyillari edi. Tabiat in'om qilgan nodir iste'dod chinakam o'zbekona mehnatkashlik bilan uyg'unlashgani uchun Qodiriyning qalamidan asrlar mobaynida eskirmaydigan asarlar dunyoga kelgan. Abdulla Qodiriy o'z davrining maktab va madrasalarida muntazam o'qish imkoniga ega bo'lmasa-da, ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamonasining eng bilimdon kishilaridan biriga aylandi.

1917-yilgi to'ntarishlargacha o'ziga to'q xonadonlarda turli yumushlar bilan band bo'lgan: prikazchik (yugurdaklik), ustachilik, bog'bonchilik qilgan. Abdulla Qodiriy Oktabr to'ntarishidan keyin qator sho'ro idoralarida xizmat qildi. Hamisha xalq orasida bo'lgan, uning extiyojlarini, og'riqli joylarini, kayfiyat-u istaklarini bilgan yozuvchi asarlaridagi dilbar obrazlar orqali o'zi mansub bo'lgan xalqning turmushini yaxshilash, ma'naviyatini yuksaltirish, milliy g'ururini uyg'otishga intildi.

Uning hikoyalari chiqqan jurnallar, gazetalar qo'lma –qo'l bo'lib ketardi. Felyetonlari bosilgan "Mushtum" jurnali hamisha talash bo'lardi. Romanlarini o'qish uchun navbat kutib turganlarning sanog'iga yetib bo'lmas, "O'tgan kunlar" romanini yod biladigan kitobxonlar bore di. Chunki adib inson ruhiyatining sirli va nozik jihatlarini chuqur, ta'sirli va haqqoniy aks ettirardi. Uning asarlari yolg'iz haqqoniylikdan tashqari, go'zal ifoda uslubi bilan ham ajralib turardi. O'zbek adabiy tilining hozirgi shaklini bunyod etishda hech bir yozuvchi Abdulla Qodiriy kabi muhim o'rin tutmagan.

Haq gapni hayiqmay aytayotgan, millatiga o'zini tanitayotgan, uning g'ururini uyg'otayotgan yozuvchi o'lkamizni egallab olgan bosqinchilar va ularning mahalliy yugurdaklariga yoqmasligi tayin edi. Shu bois qisqagina umri mobaynida Abdulla Qodiriyga ko'p bor chovut solishdi.

1926-yildayoq "sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'sizlantirdi" degan uydirma ayb qo'yib, adibni qamoqqa hukm qilishdi. Lekin aybning uydurmali, guvohlarning soxtaligi shu darajada ayon ediki, adibni qamoqqa tiqishga jur'at etishmadi. Bu, zamon zo'rlarni nazarida, yozuvchini o'ziga xos "ogohlantirish" edi. Adib bu ogohlantirishdan "to'g'ri" xulosa chiqarmadi, ya'ni haqiqatga xiyonat qilmadi.

"O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" singari roman va qissalari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun Turkiston xalqlari ma'naviy ravnaqiga hissa qo'shgan adibni 1937-yilning 31-dekabrida ikkinchi bor olib ketishdi. Bu davrda Stalin boshqarib turgan qatag'on mashinasi tinim bilmay ishlar va bu mashinaning yaxshi yurmog'i uchun yangidan yangi qurbonlar zarur edi. Adolatning ko'chasidan ham o'tmagan hukumatning o'ziga yarasha sudlari 1938-yilning 5-oktabrda XX asr o'zbek nasrining eng yirik vakilini, asrimizdagi o'zbeklarning eng fidoiylaridan birini o'limga hukm qildi. Shu tariqa, millat jallodlari tomonidan o'zbek adabiyotining yana bir chinori qulatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot. Umumta'lim maktablar uchun 7-sinf darsligi.
2. www.google.uz



ASQAD MUXTOR IJODIGA NAZAR

*Rajabova Dilobar Ro'ziqulovna
Buxoro viloyati Olot tumani
28-son maktab ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998973023212*

Annotatsiya: ushbu maqolada Asqad Muxorning hayoti haqida, shuningdek uning qoldirgan o'lmas asarlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, jurnalist, jonkuyar tashkilotchi, kotib, Samarqand dorilfununi, dramaturgiya, nasr.

Asqad Muxor 1920-yilning 23-dekabrida Farg'ona shahrida tug'ilgan. Asqad Muxorning oilasi asli Tataristondan kelgan bo'lib, farg'onaliklar orasiga singishib ketgan, o'zbekcha urf-odatlarini to'la o'zlashtirgan edi. Asqad Muxor shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, jurnalist hamda jonkuyar tashkilotchi sifatida o'zbek adabiyoti va san'atida yorqin iz qoldirgan siymodir. 1931-yilda bo'lajak adib o'n bir yoshdalgida otasi vafot etadi. Notinch zamonda moddiy jihatdan nochor oila o'n ikki bolaning uchinchisi bo'lmish Asqadni yetimxonaga topshirishga majbur bo'ladi. Asqad Muxor shu yerdagi maktabni bitirdi va 1936-yili Toshkentga kelib, jurnalistika kursida o'qidi, gazetada ishladi. Asqad Muxor 1938-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat dorilfununiga kiradi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Samarqand dorilfununi Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat universitetiga vaqtincha qo'shib yuboriladi. Shu tariqa o'qishni Samarqandda boshlagan Asqad Muxor filologiya fakultetini Toshkentda tamomlaydi. Asqad Muxorni Andijonga ishga yuboradilar. Uch yil davomida Andijon davlat pedagogika institutida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo'lib ishlaydi.

1945-yilda Asqad Muxor Toshkentga qaytadi. U avval markaziy gazetalarda bo'lim mudiri, mas'ul kotib, so'ng "Sharq yulduzi", "Guliston" jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishladi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga rahbarlik qildi. Respublika yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida ishladi. Asqad Muxor badiiy ijodga she'rlar yozish bilan kirib keldi. U maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq she'rlar yoza boshlagan edi. O'smirlar gazetasida dastlabki mashqlari e'lon qilingan yosh shoir katta matbuotda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" sahifalarida 1938-yili "Bizning avlod" she'ri bilan paydo bo'ldi. 1947-yilda bosilgan "Po'lat quyuvchi" poemasi orqali katta ijodkorlar nazariga tushadi. Asqad Muxorning shoirlik salohiyati "Hamshaharlarim", "Rahmat mehribonlarim", "Chin yurakdan", "99 miniatura", "Karvon qo'ng'irog'i", "She'rlar", "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so'zim" singari she'riy kitoblarda yorqin namoyon bo'ldi. Shoir o'z she'rlarida biz yashab turgan dunyo haqiqati, inson umrining mazmuni, ezgulik va qabohat kabi azaliy muammolarni yangi davr kishisi nuqtayi nazari bilan yoritishga harakat qiladi.

1950-yilda Asqad Muxorning "Daryolar tutashgan joyda" nomli birinchi qissasi bosilib chiqdi. 1955-yili nashr etilgan "Opa-singillar" romani bilan adabiy jamoatchilik va kitobxonlar e'tiborini qozondi. Shundan keyin yaratilgan "Qoraqolpoq qissasi", "Buxoroning jin ko'chalari", "Jar yoqasidagi chaqmoq", "Kumush tola" qissalari, "Tug'ilish", "Davr mening mening taqdirimda", "Chinor", "Amu" romanlari bilan o'zbek nasri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Asqad Muxor davr voqeliklarini aks ettirishda, inson ko'ngli voqeliklarini tasvirlashda drama janriga murojaat qildi. O'zbek dramaturgiyasi rivojida muayyan voqeaga ega bo'lgan "Mardlik cho'qqisi", "Yaxshilikka yaxshilik", "Samandar" kabi pyesalari uzoq yillar teatr sahnalarida davomli namoyish etildi. Asqad Muxor mohir tarjimonlardan biridir. Sofoklning "Shoh edip" fojeasini, Shekspir va Shiller tragediyalari, Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan. Asqad Muxor "O'zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Asqad Muxor 1997-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot. Umumta'lim maktablari uchun 7-sinf darsligi.
2. www.ziyounet.uz



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR RUBOIYLARINING BARHAYOTLIGI VA AHAMIYATI

Boboyarova gavhar berdiyevna
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani
52-IDUMI 2-toifali Ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi
+998995444063

Annotatsiya: Bobur ijodidagi eng faol lirik janr ruboiydir. Mazkur maqolada shoirning ruboiynavisligidagi o'ziga xosligi va mahorati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ruboiy, tazod, bayt, kompozitsiya, hajr, g'urbat.

Bobur shaxsi inson matonatiga qo'yilgan jonli haykal. U hayotning barcha mashaqqatlarini chekkan inson. O'z yaqinlarining hayotini, Vatandan judolik, jang-u jadallar iztirobi, adolatsizliklar zahmati. Bunday dard-u g'amlarni yengib o'tish uchun aqlan va ruhan komil inson bo'lishi lozim.

Boburning ruboiy janridagi asarlarida boshqa janrlardagiga nisbatan muallifning kechinmalari, o'y-hayollari, dard-u armonlari, iztiroblari yaqqolroq ifodalanadi. Ularni o'qir ekanmiz, shoir shaxsiyati, uning dunyoqarashi, qiyofasi, olam va odamga munosabati borasida aniq tasavvurga ega bo'lib boramiz.

Insonning vujudi yolg'iz bo'lmaydi. U har doim atrofidagi jarayon, harakatdagi mavjudod bilan aloqada, ko'ngilning ishi qiyin. Biz Bobur ruboiylarida shoir ko'ngilining ana shunday turfa jilvalarini ko'ramiz:

G'urbat tug'i yopqon ruxi zardimnimu dey,

Yo hajr chiqargan ohi sardimnimu dey.

Holing nedurur; bilurmusen dardimni,

Holingni so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey.

Mazkur ruboiyda Bobur o'z dardu armonlari tasviri orqali umumbashariy qimmatga ega g'oyalarni ilgari surgan. Dastlabki ikki misrada ayriliq va hijron, uning qilmishlari tasvirlangan. Birinch misrada *hajr* va u bilan bog'liq ravishda *sarg'aygan yuz* haqida so'z boradi. Lirik qahramon holati tasvirlarida «*ruhi zard*» iborasi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. U orqali biz yuzning *sarg'ayishiga* olib boruvchi barcha omillarni anglaymiz. Ikkinchi misradagi «*ohi sard*» ya'ni «*sovuq oh*» iborasi ham «*ruhi zard*» iborasining mantiqiy davomi ekanligini anglash qiyin emas. Bobur ham o'z she'rlarida, mumtoz adabiyotda bo'lganidek, fikrlarini tabiatning noyob hodisalari bilan dalillash an'anasiga amal qiladi. Ma'lumki, kuzda sovuq kunlarning boshlanishi natijasida o'simliklarning barglarini sovuq uradi va u *sarg'ayib*, *xazonrezgi* boshlanadi. Tabiatdagi ana shu oddiy va tabiiy jarayondan Bobur badiiy detal sifatida mahorat bilan foydalanadi. Bobur she'riyatida *sariq rang*, *xazonrezgi* ko'p qo'llanadigan badiiy vosita. Bunday tasvirlar ko'p ma'noli qamrovga ega bo'ladi. Unda biz Yordan ayrilgan oshiq holati, Vatandan yiroqdagi shoir ruhiy kechinmalari ifodasini anglaymiz. Demak, lirik qahramonning yuzi *sarg'aygan*. Buning sababchisi hijron tufayli uning ko'nglidan chiqayotgan sovuq oh izg'irirlari.

Mazkur baytda aytilmoqchi bo'lgan shoir fikrlarini mohiyatini chuqurlashtiruvchi yana ikkita so'z bor. Bu-*g'urbat* va *hajr* so'zlaridir. *G'urbat* lug'atlarda *g'ariblik*, *kimsasizlik*, *musofirlik*, *vatanidan uzoqda qolish*, tasavvuf lug'atlarida *asl manbadan*, *asliyatdan ayrilish*, *uzoqlashish* ma'nolarida izohlanadi. Hajr esa *ayriliq*, tasavvuf lug'atlarida *ilohiylikdan boshqa narsalarga bog'lanish*, *moddiylikka ko'ngil qo'yish* ma'nolarida sharhlanadi.

Demak, lirik qahramon holatini anqilashimizda shu ikki so'z nihoyatda muhim. *G'urbat* qahramon yuzining *sarg'ayishiga*, dard chekishiga, hajr esa uning umrini xazon etishga sabab bo'lgan sovuq oh chekishiga mahkum etmoqda. Demak, *g'urbat-ruhi zard*, *hajr-ohi sard* qurilmasi mazkur baytning ustuxonbandini tashkil etadi.

Bedard habib bilmadi dardimni,

Tufroqcha ko'rmadi ruxi zardimni.

Mendin necha ko'ngilda g'ubori bo'lgay,

Ketdim, muna emdi topmag'ay gardimni.

Mazkur ruboiy go'yo oldingi ruboiyning davomi sifatida yaratilgandek taassurot uyg'otadi. Birinchi asarda shoir murojaatida «*bilurmusen dardimni*» deyilsa, ikkinchi asarda to'g'ridan



to'g'ri «*bedard habib bilmadi dardimni*», deya o'z xulosasini oshkora bayon etadi. «*Ruxi zard*» iborasining ikkinchi misrada keltirilishi ham ikkala she'rning yaratilishida bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Ikkala ruboiyda ham shoir muhim umumbashariy g'oyani ilgari suradi. Insonni anglash, bir-birini g'animat bilish, atrofdagi borliqni ardoqlay olish kabi tuyg'ular tasvirini mahorat bilan ifodalaydi. Bunday kechinmalar **Komil inson** g'oyasining bosh mezonlaridandir. Shu jihati bilan mazkur ruboiylar komil inson tarbiyasi uchun, bugungi kunda davlatimizning bosh shiori bo'lgan yuksak ma'naviyat maqomiga erishmoq uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bobur asarlarining barhayotligi va ahamiyati ham ana shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Asarlar, Uch jildlik, 1-jild, T., 1965
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, T., Sharq, 2002



BOBUR MILLIY XARAKTER SIFATIDA

Sobirova Dilnoza Rasulovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
sobirova.2018@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi tarixiy shaxs – Bobur Mirzoning Xayriddin Sultonov ijodkorlik mahorati mahsuli o'laroq milliy xarakter darajasiga ko'tarila olgani xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xarakter, Bobur, milliylik, ijodkor mahorati.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, iste'dodli yozuvchi Xayriddin Sultonov o'z ijodining salmoqli qismini buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini badiiy ifodalashga bag'ishladi. Uning "Boburning tushlari", "Boburiynoma", "Saodat sohili", "Panoh" kabi asarlari Bobur Mirzoning sinovlarga to'la hayotidan darak beradi.

Xayriddin Sultonovning tarixiy mavzuda yozilgan hikoyalarining aksariyatida bosh obraz sifatida Bobur Mirzo qalamga olinadi. Jumladan, "Panoh" deb nomlangan hikoyada ham. Tarixdan ma'lumki, Bobur – mard, jasur, shu bilan birga, vataniga sodiq farzand. Umrining so'ngiga qadar yurt sog'inchi uni bir zumga bo'lsa-da, tark etmaydi. Bobur deganda Andijon xayolimizga keladi. Beixtiyor iste'dodli shoir Muhammad Yusufning quyidagi satrlari qalb torlarimizni chertadi:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men –
Shu yurtida tug'ildim, shu yurtida o'sdim,
Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim –
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..
Shu aziz tuproqdir, shu qadim qo'rg'on,
Dunyoga Boburdek shohlarni bergan... [1, 68].

Boburdek shoh vatan sog'inchi bilan yashadi. U yurtiga sodiq. Demakki, o'z millatiga ham sodiq. "Panoh" hikoyasida Boburning Ahmad Tanbal hamda inisining hiylasiga yo'liqib, arosatda qolgani, madad so'rab xon dodasi huzuriga yo'l olgani voqealari hikoya qilinadi.

Hikoyada Bobur o'ta mulohazakor, tadbirli inson sifatida tasvirlanadi. Ayni paytda u shoh bo'lsa-da, odamiyligi, diyonati shohligidan-da ortiq. Bu, ayniqsa, uning qo'l ostidagilariga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqimiz azaldan borini birga baham ko'radigan, bir mayizni qirqqa bo'lib yeydigan xalq. Bobur Mirzo – mana shunday e'tiqodiga sodiq inson. Bu, ayniqsa, uning o'zi uchun ajratilgan non va mayizni navkarlariga bo'lib berganida yaqqol ko'rinadi:

“ – Bizni ham bir navkar deb biling, o'nboshi! Barchaga barobar taqsim qiling!” [3, 88].

Xullas, hikoyani o'qish mobaynida Bobur Mirzoning qo'l ostidagilarga xoh u katta, xoh kichik yoshda bo'lsin, doim adolat yuzasidan munosabatda bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Sodiq kishisi Qosimbekning so'ziga kirib dushmanga aldanib qolgan bo'lsa-da, shuncha yo'qotishlar, sitamlarga qaramay Qosimbekning uzrini qabul qilib, uni kechira olganligi kitobxonning Boburga bo'lgan hurmatini yanada oshiradi.

Xayriddin Sultonovning "Nuqta" deb nomlangan hikoyasida Bobur o'z o'g'lining tarbiyasiga, umuman olganda, hayotiga befarq bo'lmagan ota sifatida tasvirlanadi. Muallif Bobur Mirzo nabiralik bo'lganini eshitgandan so'ng yuragidan o'tgan o'y-xayollarni quyidagicha tasvirlaydi:

"Otalikning farzi ayni – farzandga munosib ism qo'ymoq, deydilar. U hamisha baqadri imkon bunga intildi; ikkinchi o'g'li tug'ilganda umrlik baxt tilab, Komron nomini berdi; uchinchi o'g'li tug'ilganda unga askarlik shijoatini tiladi – Mirzo Askariy deb bag'riga bosdi; Hindni olganida Haq taolo to'rtinchi o'g'ilni ato etdi – shavkatli kunlarimdan yodgor deb Hindol ism qo'ydi... Mana endi unga yaratgan unga nabira quvonchini baxsh etibdi..." [3,143].

Bobur Humoyunning maktubiga javob bitarkan o'g'lidani otalarcha gina qiladi:

“ – Yana sendin ozroq ginam bor, -- deya xat boshidan yozdi u, – bu ikki-uch yildan beri bir kishining kelmadi. Men yiborgan kishi rost bir yildan so'ngra keldi. Mundaq bo'lurmi?” [3,144].

Ayni paytda Bobur Mirzo nasihat berishni unutmaydi:

"Yana xatlaringda yolg'uzlik, yolg'uzlikkim, debsen, podshohlikda aybdur, nechukkim debturlar:

Agar poy bandi rizo pesh gir,
Va gar yaksuvori sari xesh gir.



Hech qayda podshohlik qaydicha yo‘qtur. Podshohlik bila yolg‘uzlik rost kelmas...” [3,146].

Quyidagi jumlar ham fikrimizni dalillaydi:

“Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishini va el bila kam ixtilohliqni bartaraf qilg‘il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig‘a qo‘ymay, qoshingga chorlab, har bo‘lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so‘zunga qaror bergaysen...” [3, 151].

Biz badiiy asarlarda Bobur Mirzoni ko‘pincha jang-u jadallarda, yoki bo‘lmasam, ijod oshyonida uchratamiz. Xayriddin Sultonovning “Nuqta” hikoyasini o‘qir ekanmiz, biz Boburni “o‘zbek otasi” siymosida qayta kashf etamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Bobur – tarixiy shaxs. Xayriddin Sultonovning ijodkorlik mahorati mahsuli o‘laroq, u milliy xarakter darajasiga ko‘tarila olgan haqiqiy o‘zbek timsolidir.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: “Sharq”, 2014. 288 b.
2. Султонов Х. Куеш барчага баробар . – Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1980, 56 б.
3. Sultonov X. Saodat sohili. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2005, 176 b.



НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ҲОДИСАЛАРИ ТАЛҚИНИ.

*Жабборов Худайберан Ахмедович – Хоразм вилояти
Хива туман, 32-мактаб она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси,
Собирова Гулнора Йўлдашовна - Хоразм вилояти
Хива туман, 32-мактаб она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси.*

Аннотация: Мақолада мумтоз адабиётимиз мутафаккири Алишер Навоий асарларида табиат ҳодисалари тасвири, табиат гўзал манзара ва ҳодисалари моҳирона ифодалангани ёритиб берилган.

Калит сўзлар: гул, сумбул, лола, ғунча, сув, субҳидам, булбул соя, ҳамроҳ, мағриб, қуёш, барг, баҳор, боғ.

Мумтоз адабиётимизнинг намоёндалари ўзларининг шеърӣ ёки насрий асарларида табиат ҳодисалари билан боғлиқ манзаларни гўзал қилиб таърифлашган улардан бениҳоя тўлқинланиб, ўзлари олган илҳомни завқни ҳайратни яширмай, юксак бадиий пардаларда тараннум этишган. Алишер Навоийнинг “Муншаот” асарида йилнинг тўрт фаслига алоҳида аҳамият қаратилган.

Алишер Навоий «Хамса»нинг «Хайратул аброр» достонида табиат инъоми бўлмиш гулларни олам беағи эканлигини гўзал қилиб тасвирлайди. «У гўзал келинни эрта тонгданок хушбўй гуллар билан безайди, гул билан юзига ғоза суриб, зулф ҳамда эғнини сунбул билан ораста қилади-ю, лола билан чехрасини қизил қилиб, лола доғидан ул чехрага хол ясайди. Сабза билан қошига ўсма қўйиб, шабнам билан юзига ёпинчиқ-меъжар тутати. Хинадан панжаларига буёқ суртиб, сувни унга ойнадор қилади. Оғзини ғунчалар билан пинхон қилиб, сўзлаш чоғида у ғунчани очиладиган қилади. Шахло наргисдан унга кўз ясаб, савсан-у раънолар тилидан сўз ўргатади». Табиатнинг гўзал инъомидан гўзал келинни безантиришда моҳирона фойдаланади. Лоланинг қизил рангидан чехрасини ол қилса, лола доғидан гўзал келин чехрасига хол қўяди, янги чиққан кўм-кўк майсалардан қошига ўсма қўяди, қўлларига хина суртиб гўзал чехрани кўришга кўзгу ўрнида сувдан фойланади.

Буюк мутафаккир баҳор фаслининг кириб келишини фалакнинг оламга кўрсатаётган меҳрибонлиги сифатида кўради. Жумладан «Хамса» асарида «Тонг пайтлари сахарнинг мушк таратувчи насими-майин шамоли эсиб, боғда фаррошлик қила бошлади. Булут ҳам сувни сакқо-сув сепувчидек сепишга киришди. Боғ супурилиб, сув сепилгач, райхонлар хурсандчилик билан бошларини кўтара бошладилар». Ушбу жумласида Навоий тозаликка эътиборни қаратади. Тонг шамолини боғни супурувчи фаррошга, булутларни эса сакқо сув сепувчига ўхшатади. Сув сепилган, супурилган боғда ўсган райхонлардан хушбўй хид таралиб туришига аҳамият қаратади.

Мумтоз шоир ўз ички кечинмаларини таърифлашда табиат ҳодисаларидан ўз ўрнида юксак моҳорат билан фойдаланганини қуйидаги байтдан ҳам билишимиз мумкин.

Ул қуёш ҳар ёнқи борса, соя ҳамроҳи анинг,

Соядек беҳол ўлурмен рашкдин ҳамроҳига.

Ёки ушбу байтида қуёш ғарб томонга ўтгани сари соя шунчалар узун бўлиши ҳақида ёзади.

Юз ёпиб, қилдинг узун шоми ғамимни, эй қуёш,

То қуёш мағрибга мойил, сояси кўпрак узун.

Кузда дарахтлар барглари тўкиб қишги тиним даврига кетади. Бунда дарахт ва буталарнинг барглари сарғайиб қизғиш қўнғир рангга кириб табиатга ажойиб манзара бахш этади. Бу ҳодисани шоир ёридан айро тушган ошиқ мисолида тасвир этади.

Ҳар хазон барги эрур зореки даҳр озоридин,

Сарғайиб мендек тушар айру сихикад ёридин.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, табиат ҳодисалари ва жараёнлар мумтоз адабиётимиз устози Алишер Навоий ижодидан кенг ўрин олган. У ошиқнинг ички кечинмалари, руҳий ҳолатини тасвирлашда бу ҳодиса ва жараёнлардан юксак моҳорат билан фойдаланган.

Фойдаланилган адабиётлар рўхати.

1. А.Навоий. Хамса. -Т.: “Шарк” нашриёти 2016 йил.

2. А.Навоий. Қаро кўзим. –Т.: “Ғофур Ғулом нашриёти. 1988 йил.



ULUG’BEK HAMDAMNING “SABO VA SAMANDAR” ASARIDA MA’NAVİY- AXLOQIY QARASHLAR

Omonullayeva Sayyoraxon Ahmadjonovna
Marg’ilon shahar, 1-umumta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
+998911118979
sadoshkarimova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada adib Ulug’bek Hamdamning ma’naviy-axloqiy, falsafiy-estetik qarashlarini nozik muhrlagan “Sabo va Samandar” romani haqida bayon etilgan. Asarda ijtimoiy muhit, shaxs va jamiyat munosabati keng ko’lamda tasvirlanadi. Adib o’z romanini mumtoz an’analar ruhida, yo’lida yozishni ma’qul ko’rdi. Asar qahramonlaridan tortib, voqealar tizimi, xullas, asarning boshdan-oxir kompozitsiyasida aynan shunday uslub qirralari yuz ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: “Sabo va Samandar”, falsafa, estetika, kompozitsiya, „Layli va Majnun“, ramziylik.

Zamonaviy o’zbek nasrida o’zbek romanchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan, badiiy ijodga o’z ovozi, o’z yo’nalishi bilan kirib kelgan adiblardan biri Ulug’bek Hamdamdir. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universitetida yosh avlodga adabiyotning sirli olamidan ta’lim berib kelmoqda. U bir necha nasriy, nazmiy hamda adabiy-tanqidiy to’plamlar muallifi. Tanqidchilik qissani nasrimizdagi yangilanishlardan yaqqol darak berguvchi o’ziga xos ramziy asar sifatida baholadi. Hikoyalarida ham muallif inson qalbining hamishalik bezovta, tahlikali qismini tasvirlashga urinadi.

Ulug’bek Hamdamning “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul” va “Seni kutdim” nomli she’riy to’plamlari chop etilgan. Shoir she’rlarida ruh qichqirig’ini, qolipsiz, jilovsiz va hayajonli kechinmalar oqimini tuyish mumkin. Ularda kelish va ketish, nur va zulmat, oq va qora, do’st va dushman kabi tushunchalar yonmayon yashaydi hamda shoir iztirobi bilan ziynatlanadi.

Muallifning “Sabo va Samandar” romani ishq mavzusida salafarga ergashib bitilgan asar bo’lib, unda pok va yuksak muhabbat tuyg’usi zamondoshlarimiz qismati orqali sharaflanadi.

Dunyo mo’jizalarga boy. Borliqdagi har bir mavjudot – o’ziga xos olam. Inson yaralishida jism-u joniga pok va muqaddas ruh jo bo’ladi. Yurakni oshiyon aylagan ruh bebaho gavhar, uni musaffo va munavvar holda asrash kishini dunyo va oxirat saodatiga musharraf etadi. Inson fitratida muhabbat, mehr-oqibat, muruvvat kabi oliy tuyg’ular mavjud. Botindagi hissiyotning zohiriy ifodasi ko’p holda betakror san’at durdonalarida tajassum topadi. Iste’dodga ilhom baxsh etadigan muhabbat azaliy va abadiy mavzu bo’lib qolaveradi.

Adib Ulug’bek Hamdam ma’naviy-axloqiy, falsafiy-estetik qarashlarini asarlariga nozik muhrlab boradi. U xoh nazm, xoh nasrda qalam tebratmasin, ko’ngil mujdalarini turfa rang, betakror ohangda yoritishga muvaffaq bo’ladi. Muallifning “Sabo va Samandar” romanida muhabbat yangicha talqinda namoyon bo’lgan. Asarda ijtimoiy muhit, shaxs va jamiyat munosabati keng ko’lamda tasvirlanadi. Adib o’z romanini mumtoz an’analar ruhida, yo’lida yozishni ma’qul ko’rdi. Asar qahramonlaridan tortib, voqealar tizimi, xullas, asarning boshdan-oxir kompozitsiyasida aynan shunday uslub qirralari yuz ko’rsatadi. Adibning romanni yozishdan maqsadi, nazarimizda, yangi zamonning Layli va Majnunlari obrazini yaratish edi. Samandarning ushbu dostonning ashaddiy muxlisi sifatida uni deyarli yoddan bilishi tasodifiy emas. “...Majnun qismati tasvirida bo’lgan kabi Shayx taqdiri, xatti-harakatlari talqinida hazrat Navoiy o’z qahramonini aslo tanqid qilish, fosh etish yo’lidan bormaydi. Balki yengil, latif bir tabassum bilan uni tushunib, avaylab, ardoqlab qalam tebratadi”, - deb yozadi adabiyotshunos Umarali Normatov.

Adibning Samandari ham Navoiy ijodiga, xususan, «Layli va Majnun»ga qayta-qayta murojaat etadi. Darhaqiqat, “Layli va Majnun” dostonida bo’lgani kabi, Sabo va Samandar ham yozuvchining individual uslubi va mahorati orqasida o’quvchiga asar boshidayoq betakror oshiq-ma’shuq siymosini namoyon qiladi. Samandar “Layli va Majnun” dostonidagi Majnunning eng yoqtirgan so’zlarini shior qilib oladi, go’yo:

Layli ishqin tanimda jon qil,

Layli shavqin rangimda qon qil...



Bundan ko'rinib turibdiki, bolaligidan joni-diliga aylangan bu baytda Layli o'rnida to Saboni uchratguniga qadar Samandarning orzusidagi malika siymosi bo'lgan.

Romanda muhabbat qissasining tuguni – Sabo va Samandarning ilk uchrashuvi yozuvchining betakror uslubi bilan yanada hayajonli aks etadi. Hali auditoriyada o'tirgan Saboni ko'rmasdan gapirayotgan gapini yo'qotgan Samandar uni ko'radi-yu taniydi. Xayolidagi go'zal, uni shu kungacha tinch qo'ymagan pariyo'shu. Hamidulla Boltaboev aytganidek, "...inson doim o'zligini axtarib yashaydi. Mana shu axtarishlar, izlanishlar jarayonida har bir narsaga – gulga, yulduzga, zaminga yuzlanadi. Ko'zlardan, dillardan, ranglardan o'zini izlaydi. Nimanidir, kimnidir topganday bo'ladi. Topganida topinib yashaydi". Bu e'tirof xuddi Samandar uchun aytilganday go'yo. Sabo ham ishq gulzorida Samandardan kam kezmasdi. Har ikkalasi ham hayot yo'li qayerga boshlasa, nimani ularga ro'baro' qilsa-da, topganlariga topinib yashashdi.

Romanda Sabo va Samandarning ishqida shunday deydi: "...agar muhabbat baxt bo'lsa, men poyingga tiz cho'kib, ishqdan o'zga baxt so'ramayman!.. Menga shuni ber va to tirik ekanman, meni undan mahrum aylama!.. Men ishqning uyida so'nggi nafasimgacha qolishni istayman! Ishq bilan ko'z ochib, ishq bilan ko'z yumsam deymen! Meni shu erda to'xtat, meni hayot deb atalmish uzun yo'lning ishq bekatida tushirib va unutib qoldir, ey parvardigor!.."

Asarda pok insoniy muhabbat bilan bir qatorda ilohiy muhabbatning tarannumi o'z aksini topadi va shuning orqali realistik nasrda romantik bo'yoqlarning sintezlashgan ko'rinishi namoyon bo'ladi. Masalan ijodkor Sabo va Samandarning hayoti, o'limi, tuyg'ulari, kechmishi misolida majoziy ishq bilan bir qatorda ilohiy sevgining o'ziga xos badiiy ifodasiga erishadi.

Asar bosh qahramoni Samandar taqdiriga nigoh tashlab, bolaligi o'tgan Andijonning Mingtepa qishlog'i aholisi turmush tarzi, madaniyati bilan yaxshiroq tanishasiz. Adib asaridagi goh mayin, goh mahzun ohang qahramonlar ruhiyati tasvirida, tabiatning rangin bo'yoqlarda aks etishida, lirik chekinishlarda yaqqol seziladi. Mohiyatni teranroq yoritish maqsadida badiiy matn tarkibiga sevgi qissasi singdirib yuboriladi. Bu qissani Samandar ham tinglagan, ikki yoshga kuyunib achingan edi. Qarangki, Nilufar va Nodirning zavol topgan muhabbati o'zga ko'rinishda Samandar taqdirida ro'y beradi. Syujet chizig'idan bosh qahramonning Sherdil, Hamid, Aziza bilan munosabatlari ham o'rin olganki, bular vositasida jamiyatdagi kishilarning hayot maslagi, o'y-fikrlariga oydinlik kiritilgan.

Adib qahramonlar ruhiyatidagi ishq dardi, taftini haqiqatga monand tasvirlash maqsadida ichki monologdan, lirik chekinish, tush holatidan samarali foydalanadi. Samandar bilan Sabo aslida hushida emas, tushida bir-birini suyub alqab, qalbga orom berib yashaydi.

Roman qahramonlariga tanlangan ismlardagi ramziylikka ham ahamiyat beraylik: Sabo – tonggi huzurbaxsh shamol, kayfiyatni ko'tarib, qalbga musaffolik olib kiradi (lekin u o'tkinchi, doim ham uni his qilish qiyin, masalan erta bahorda, yomg'irdan so'ng tafti o'zgacha bo'ladi); Samandar – qush, dardini kuylab, fig'on chekib, o'z kuyi ohangida halok bo'ladi, keyin yana o'z xokidan yaraladi. U erkin, bepoyon osmonda parvoz qiladi. Biroq qalbi kengliklarga sig'maydi. Dardiga darmon topilmaydi.

Har narsada me'yor bo'lganidek, ruhiy muvozanatga erishgan insongina hayot gashtini tuyib, xotirjam, osuda yashaydi, baxtli umr kechiradi. Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida hayot va mamot oralig'idagi inson qismati tamomila falsafiy tus oladi. Undagi o'lim fojiaiy yakun emas, balki abadiy visolning debochasi o'laroq qabul qilinadi. Shu jihati bilan roman voqealari mumtoz asarlarimizni yodga tushiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdulkarim Akbarov . "Ulug'bek Hamdam – ham adib, ham shoir ", Toshkent-2014 y.
2. M.Qurbonova, M.Yo'ldoshev „Matn tilshunosligi“.- T.: "Universitet" 2014 y.
3. Abdullayeva Q., Rahmonova S. Ona tili darslari (usuliy qo'llanma). Toshkent, 1999.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000